Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318520

materiallar to'plami

YOSHLARNING MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Pulatova Odinaxon Xamidovna , dotsent
Andijon mashinasozlik institute "Gumanitar fanlar" kafedrasi
Xabibullaeva Zilola- Andijon mashinasozlik instituti "Moliya" yo'nalishi
2 bosqich talabasi, Andijon viloyati, Andijon shahri, O`zbekiston

Annotatsiya. Maqolada insonning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan hayot tarzini engillashtiradigan, ish yuritishda foydaga asos bo'ladigan, sog'lik-salomatligini barqarorlashtiradigan asosiy omil tilga e'tiborli bo'lish, mulohaza va mushohada bilan fikr yuritish, boz ustiga samimiy muomalada bo'lishi yuzasidan fikrlar berilgan.

**Kalit so`zlar**. So`z, suhbat,samimiy, omil,shirin so`z, oltin qoidada

Insonlarning surat va shakllari go'zal qilib yaratilgan. Bu hikmat ularning muomalasi ham go'zal bo'lishini taqozo qiladi. Inson surat va siyratini, ichki dunyosini chiroyli qilgani sayin komillik darajasiga yaqinlashaveradi[1]. Shuning uchun farzandlar muomalada muloyimlik va kechirimlilikni shior qilib olishlari lozim. E'tibor qancha kuchli bo'lsa, ana shu miqdorcha ota-ona huzurida imkoniyatga ega bo'ladilar. Odatda kishi obro'-e'tiborini til orqali topadi. Dono xalqimizning bu to'g'rida "Tilga e'tibor, elga e'tibor". "Bug'doy noning bo'lmasin, bug'doy so'zing bo'lsin"[2].

"Achchiq til zahari ilon, chuchuk tilga jon qurbon". "Bemorga shirin so'z kerak, aqlsizga ko'z". "Gapning qisqasi yaxshi, qisqasidan hissasi yaxshi" kabi hikmatlari bejiz emas[3]. Zero, insonning ma'naviy darajasini ko'rsatadigan hayot tarzini engillashtiradigan, ish yuritishda foydaga asos bo'ladigan, sog'lik-salomatligini barqarorlashtiradigan asosiy omildir. Tilga e'tiborli bo'lish, mulohaza va mushohada bilan fikr yuritish, boz ustiga samimiy muomalada bo'lish inson uchun faqat yaxshilik keltiradi.

Farzandlarining muomala madaniyatini yaxshi bo'lishini istagan ota-onalarning o'zlari bu jihatda farzandlarga ibrat bo'lishlari kerak. Muomala oilada hayot fayzi, xonadon egalari uchun uning chirog'i kabi deyishimiz mumkin. Bunda avvalambor ota-ona bir-birlarining kamchiligi yoki noto'g'ri harakatini ko'rganda, farzandlar oldida tanqid qilib, gap bilan uyaltirmasdan, og'ir-bosiqlik bilan voqea sababini aniqlashtirish, samimiy gap-so'zlar bilan muammoni hal qilish tahsinga sazovordir[4].

Turmush o'rtog'ining tashqi ko'rinishi, kiyinishi, harakatlarini boshqalarga taqqoslab, salbiy jihatlarini yuziga solish, ta'na qilish mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Ayniqsa, farzandlar oldida tanqid qilish, kamsitish yurakda ketmas dog' bo'lib qolishi mumkin.

Aksincha, farzandlarni oldida turmush o'rtog'iga bolalarning mehrini keltiruvchi vaziyatga muvofiq so'zlar bilan muloqot va muomala qilish ota-onaning izzat-hurmat topishning muhim bosqichlaridandir[5]. Hayotda turli vaziyatlarga duch kelamiz. Ba'zi ota-onalar farzandlarini o'ksitmaslik, namunali qilish maqsadida kiyinishda, ovqatlanishda, ta'lim olish va ishlashda ular uchun barcha sharoitlarni yaratib beradilar. Farzand bu imkoniyatlarni noto'g'ri tushunib, kibrli, manmanlik

Published: 10.11.2023

Cite this article: Pulatova Odinaxon Xamidovna, Xabibullaeva Zilola (2023). Yoshlarning muloqot madaniyatini rivojlantirish omillari. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318520

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

kayfiyati uning axloqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oxir oqibat to‘qlikka sho‘xlik qilib muomala va muloqotda qo‘pol, mulohazasi sayozligi evaziga bir og‘iz so‘z bilan ota-onalarning dillarini og‘ritadi, ranjitadi. Natijada o‘rtadagi muomala madaniyati izdan chiqadi, boshqalarning undan ko‘ngli qoladi. Tuzatish qiyin bo‘lgan muammo va qiyinchiliklar paydo bo‘ladi[6]. Farzandlar hoh o‘g‘il, hoh qiz bo‘lsin o‘zlariga oro bersalar-u, muomalani bilmasalar, hech qachon el hurmatiga sazovor bo‘lmaydilar.

Agar nazar soladigan bo‘lsak, muomala madaniyatining go‘zalligi bilan muammolar echiladi, qalblarga yo‘l topiladi, orzular ro‘yobga chiqadi, otaonani ko‘nglini olishga sharoit yaratiladi. Shu o‘rinda xalqimiz “Shirin so‘z bilan ilon inidan chiqadi”, deb bejiz aytmagan. Hatto, chiroyli muomala moddiy mablag‘ bilan qilingan yaxshiliklarni ham bosib o‘tishi mumkin. Bu ma’noni ta’kidlab, Abu Hurayra (roziyallohu anhu) Payg‘ambarimizdan (solallohu alayhi vasallam) keltirgan hadisi sharifda: “Tabassum bilan aytilgan chiroyli so‘z - sadaqadir”, deyiladi. Bu bilan odamlarning o‘zaro muomalasi qay darajada izzatlanishi ta’kidlanmoqda[7]. Gohida kichkina e’tiborsizlik katta noxushliklarga sabab bo‘ladi, muammo ustiga muammo tug‘iladi. Inson bu borliqda mavjud ekan, tinimsiz atrofidagilar bilan muloqotda bo‘ladi, u istaydimi, yo‘qmi?!

Ba’zida yoqtirmagan kishisi bilan bir vagonda safarga chiqishi yoki hech qachon kelisha olmagan hamkasbi bilan bir xonada yillab ishlashiga to‘g‘ri kelishi mumkin. Gohida ko‘rgani ko‘zi yo‘q odam bilan shartnoma tuzishiga ham to‘g‘ri kelib qoladi. Har nechuk ularni doim bo‘lmasada tez-tez uchratadi. Inson o‘z yaqinlari va do‘stlari bilan miriqib suhbatlashadi, bu shubhasiz. Ammo jamiyatdagi barcha shaxslar uning do‘stlari emas-ku! Ular bilan qanday suhbat qurish mumkin. Madaniyatli shaxs uchun bu hech qachon muammo tug‘dirmaydi.

Muammo shundaki, jamiyatdagi turli tabaqadagi shaxslar bilan suhbat qurishning sanoqli qoidalari borki, uni hamma ham bilavermaydi va shu sabab kattakichik ko‘ngilsizliklarga uchraydi[8]. Ko‘p hollarda bunday insonlar nafaqat ko‘ngilsizlik, balki omadsizliklarga ham duch keladi. Bu achinarli holat, albatta. Inson bunday holatga hech qachon tushmasligi ham mumkin.

Buning uchun turli insonlar bilan suhbatlashish jarayonida bir necha kichik qoidalarga amal qilsa bas:

-suhbatdoshingizga og‘ir botadigan, xafa qiladigan, noqulay vaziyatga solib qo‘yadigan, gapirishni istamaydigan mavzu bo‘yicha suhbatlashish mumkin emas; suhbatdoshingizga o‘zingizga ta’rif, tasnif berishdan, o‘z muammo va yutuqlaringiz haqidagi ma’lumotga e’tiborni kuchaytirishdan qoching. suhbat chog‘ida o‘zingizni “men”ingizni markaziy joyga qo‘ymang, kamtar bo‘ling;

-o‘zingizni fikringizni uqtirishdan oldin uyalib qolmasligingiz uchun hamsuhbatingizni ijtimoiy kelib chiqishi, shaxs sifatida aytilayotgan masala yuzasidan qanday ma’lumotga ega ekanligini bilib olgandan so‘ng suhbatga kirishing;

-suhbatdoshingizni hurmat qilishga o‘rganing, hatto uning fikrini siz noto‘g‘ri deb bilganingizda ham oxirigacha eshiting boshqa insonlarni g‘iybat qilishdan, ularni muammosi haqida gaplashish ham axloqsizlik sanaladi;

-har qanday suhbat birinchi navbatda ma’lumotlar almashinuvidir.

Suhbat jamoat joylarida yoki ko‘chada bo‘lsa boshqalarni o‘ziga jalb 30 qilmagan holda ovoz ohangini pastlatish lozim[9]. Tez yoki haddan tashqari cho‘zilib gapirish ham ma’lumotni o‘zlashtirishga xalaqit beradi. Kam muomalada bo‘lgan, yaxshi tanimaydigan insonlar bilan muloqatda bo‘lishda hammaga tushunarli bo‘lgan engil mavzu tanlab olinadi.

Masalan, futbol, seriallar, teleko‘rsatuvlar v.h.k. hech qachon oilaviy muammolar, shaxsiy hayotdagi kelishmovchiliklar, o‘zi tushunmagan va ma’lumotga ega bo‘lmagan[10]. Tor mutaxassislikka oid mavzularda gaplashish mumkin emas. Hamma xursand holatda suhbatlashayotgan holatda kayfiyatni tushuruvchi qo‘rqinchli voqealar, ko‘ngilsiz holatlar haqida gapirish boshqalarning kayfiyatini tushurib yuboradi.

Kasal ko‘rgani borganda o‘lim haqida, uning kasalining tarixi, mayda-chuydalari haqida gapirish mumkin emas. Uning o‘rniga yolg‘on bo‘lgan taqdirda ham, ko‘rinishi yaxshiligi, albatta tuzalib ketishi mumkinligi borasida suhbat qurish lozim. Dasturxon atrofida ishtahani bo‘g‘uvchi mavzular haqida gapirilmaydi. Taomni yomonlash, kamchilik axtarish mumkin emas, balki pishirgan insonni ko‘nglini ko‘tarish lozim[11]. Tarbiyali va madaniyatli inson umumiy tanish haqida fikr bildirayotganda yolg‘on ishlatmaydi, u haqida noloyiq so‘zlar aytmaydi. Bir inson haqida (hatto u yomon inson bo‘lganda ham) fikr bildirayotgan paytda u kirib qolsa, miyig‘ida kulib, iboli qarash, piching, qochiriqlar qilish, ba’zida betga aytgan haqiqiy fikrdan ham qattiq dilga ozor beradi.

Suhbatlashishning chog‘ida inson tinglashni ham bilmog‘i darkor. Tinglash faqat eshitib o‘tirish degani emas. Yaxshi suhbatdosh o‘z suhbatdoshi fikrini mantiqiy tugatgandan so‘ng, o‘z fikrini to‘liq bayon qilib beruvchi insondir. Juda ham kerak bo‘lib qolgan vaqtda kechirim so‘rab, masalan, “Kechirasiz, menimcha shu fikringiz…” yoki “Fikringizni bo‘lganim uchun uzr so‘rayman, menimcha…” bu vaqtda gapirayotgan odam suhbatdoshiga imkon berishi lozim[12]. Insonning dunyoqarashi haqida gap ketganda albatta yoshlar bilan kattalar o‘rtasida tushunmovchiliklar bo‘ladi. SHunday paytlarda yoshlar o‘zlarini fikrlarini yoqlamasdan “xo‘p” deb mavzuni o‘zgartirishlari kattalarning dili og‘rib qolishidan saqlaydi. Suhbatdoshingizning fikrini noto‘g‘ri deb bilgan taqdiringizda ham tarbiyali va kamtar inson sifatida munosabatda bo‘lib “menimcha, adashdingiz”, “uzr men boshqa fikrdaman”, “kechirasiz, men sizning fikringizga qo‘shilmayman” degan iboralar bilan murojaat qilinadi. Hech qachon “umuman noto‘g‘ri”, “bu to‘g‘rida hech narsani tushunmaysiz”, “bu narsani yosh bola ham biladi” degan iboralarni ishlatish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1.Iroda, M. et al. Rational Methods Awakening and Stimulating University Students Professional and Creative Abilities // Eastern European Scientific Journal. – 2019. – No. 1.

2.Mahammadovna, S.I. (2021). Needs snd Factors for Developing Professional and Creative Abilities of Students of Higher Educational Institutions //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – Vol. 25. – No. 6. – Pp. 2804-2810.

3.Pulatova, Odinakhan Khamidovna, Poziljonova Zulfizar (2020). Pedagogical

approach to the development of economic culture .Archive of Conferences Jun 10, 2020 GSHSA-Florida. Pp. 18-20.
4.Sirojiddinova, I.M. Improving the professional training of future engineers based on the cluster approach. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development Volume 02, May, 2022.
5.Khamidovna P. O. Issues of development of the communication culture of technical students //world of science: journal on modern research methodologies. – 2023. – т. 2. – №. 3. – с. 32-35.
6. Khamidovna P. O. On the Issues of Studying the Problems of Unorganized Youth //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 316-318.
7.Khamidovna P. O. Features of the Use of Modern Didactic Tools in Technical Higher Educational Institutions //Telematique. – 2023. – С. 7630–7634-7630–7634.
8.XAMIDOVNA P. O. Pedagogning talabalar bilan muloqot olib borish yollari //УзМУ хабарлари. – 2023.
9.PO Khamidovna. COMMUNICATION CULTURE OF INDIVIDUALS // European Journal of Humanities and Educational Advancements // EJHEA – 2023.-T.4.- №4 C-32-36
10. Pulatova O. ISSUES OF ORGANIZING INNOVATIVE ACTIVITIES OF FUTURE SPECIALISTS //International Conference on Education and Social Science. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 164-168.
11. Пулатова О. Х. ТАЛАБАЛАРНИНГ КАСБИЙ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ ХОРИЖИЙ ТАЖРИБАЛАР ОРҚАЛИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 53-62.
12. Пулатова О. Х. ТАЛАБА ШАХСНИНГ КАМОЛ ТОПИШИДА ИЖОДИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ //MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 6-14.